O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI

2023- yil DEKABR

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




Yanvar-dekabrda o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati




**Iste’mol narxlari indeksi (INI)** iste’mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich o‘zgarmas iste’mol tuzilmasi bo‘yicha aholi tomonidan ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan iste’mol uchun xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarning belgilangan to‘plami qiymatining o‘zgarishini ifodalaydi.

2023- yilning dekabrida oylik yig‘ma INI **101,2 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatdagi (2022- yilning dekabriga nisbatan) yig‘ma INI **108,8 %** darajasida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida yig‘ma INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati **0,7 %** ga yetdi. Bu, bir yil avvalgi ko‘rsatkichdan 0,2 foiz bandga va 2021- yildagi ko‘rsatkichdan 0,1 foiz bandga past bo‘ldi.

## 2023- yilning noyabr oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[1]

| Davlat | | |
|---|---|---|
| Yevropa Ittifoqi | -0,4 % | 3,1 % |
| Belgiya | -0,1 % | -0,8 % |
| Bolgariya | 0,2 % | 5,5 % |
| Vengriya | 0,0 % | 7,7 % |
| Germaniya | -0,7 % | 2,3 % |
| Gretsiya | -1,1 % | 2,9 % |
| Irlandiya | -0,9 % | 2,5 % |
| Italiya | -0,6 % | 0,6 % |
| Latviya | -0,1 % | 1,1 % |
| Litva | -0,4 % | 2,3 % |
| Portugaliya | -1,0 % | 2,2 % |
| Polsha | 0,6 % | 6,3 % |
| Ruminiya | -0,1 % | 6,9 % |
| Fransiya | -0,2 % | 3,9 % |
| Shvetsiya | 0,2 % | 3,3 % |
| Estoniya | 0,0 % | 4,1 % |

## 2023- yilning noyabr oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[2]

| Davlat | o‘tgan oyga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning oktabriga nisbatan |
|---|---|---|---|
| Belorusiya | 0,7 | 4,9 | 5,4 |
| Qozog‘iston | 1,0 | 8,9 | 10,3 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 0,3 | 6,9 | 8,1 |
| Rossiya | 1,1 | 6,6 | 7,5 |
| Ukraina | 0,5 | 4,4 | 5,1 |

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e’lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste’mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIni hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIni shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi https://lib.stat.uz.

[1]) https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb

[2]) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida.

# DEKABR OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

## TOVARLAR



o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




2023- yil dekabrida tovarlar bo‘yicha INI oy davomida **101,2 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda tovarlar bo‘yicha INI **108,8 %** darajasida shakllanib, o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati **0,7 %** ni tashkil etdi.

## XIZMATLAR




o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




2023- yilning dekabrida xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI **101,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan INI **108,7 %** ga yetib, o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati **0,7 %** ni tashkil etdi.

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro‘yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni yig‘ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig‘ida narxlarni ro‘yxatga olish har bir tovar va xizmat bo‘yicha bir marta amalga oshiriladi va qo‘shni davrlar uchun ro‘yxatga olish oralig‘i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIni hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta’siri chiqarib tashlanadi.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

## o‘tgan oyga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari




### Nooziq-ovqat mahsulotlar




### Xizmatlar




## o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari




### Nooziq-ovqat mahsulotlar




### Xizmatlar




2023-yilning so‘nggi oyida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **101,3 %** ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar bo‘yicha ko‘rsatkich **101,0 %** ga, pullik xizmatlar bo‘yicha esa **101,5 %** ga yetdi.

2023- yilda oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha INI **109,7 %** darajasida, nooziq-ovqat mahsulotlar bo‘yicha **107,7 %**, pullik xizmatlar bo‘yicha **108,7 %** darajasida qayd etilib, o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati mos ravishda **0,8 %**, **0,6 %** va **0,7 %** ni tashkil etdi.

**170** turdagi tovarlar

**250** turdagi tovarlar

**90** turdagi xizmatlar

DEKABR

## YIG‘MA INI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

o‘tgan oyga nisbatan







o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o‘zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning dekabridagi qisqa muddatli INI **100,8 %** (ularni hisobga olganda **101,2 %**) ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich **108,1 %** darajasida qayd etildi.

## 2023- yilda yig‘ma INI dinamikasi, % da

o‘tgan oyga nisbatan



# ASOSIY GURUHLARDAGI NARXLAR O‘ZGARISHINING QISQA MUDDATLI YIG‘MA INI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIRI TUZILMASI

## Ta’siri (f.d.*) va uning ulushi (%). 2023- yil dekabr




Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Xizmatlar

Oziq-ovqat mahsulotlari narx o‘zgarishlarining kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlarni 2023- yil dekabridagi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘sish sur’atiga umumiy ta’siridagi hissasi **45,2 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar hissasi **27,4 %** ga to‘g‘ri keldi.

## 2023- yilda guruhlarning qisqa muddatli yig‘ma INI o‘sish sur’atiga ta’siri dinamikasi, f.d.*




*) foiz darajasida

### Ma’lumot uchun:

INIni shakllantirish quyidagi ikkita ma’lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) salmoq vaznlarini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladigan aholining iste’mol xarajatlari tarkibi (uy xo‘jaliklarida o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma’lumotlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida iste’mol narxlari (ya’ni, tovarlar va xizmatlarning aholi tomonidan sotib olinadigan narxi) o‘zgarishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar. O‘rtacha narxlar darajasiga assortiment va hududiy siljishlar kabi bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. INIni hisoblashda, faqatgina inflyatsion omil-larni aniqlash maqsadida ularning ta’siri hisobga olinmaydi.

Iste’mol narxlarining o‘zgarishi kuzatuvlari doirasida, har oyda **10 mingdan ortiq** kuzatuv obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.

# ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING 2023- YILNING YANVAR-DEKABRIDAGI YIG‘MA INI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIRI TUZILMASI

Hisob-kitoblarga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarning 2022- yil dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’sirining **46,8 %** i to‘g‘ri keldi (bir yil avval ushbu ko‘rsatkich **53,9 %** ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta’siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo‘ldi va uning ulushi **22,9 %** ni (o‘tgan yili **15,7 %**) tashkil etdi.

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlarining narx o‘zgarishlari hisobiga 2023- yil uchun yig‘ma INI **4,10 f.d.** o‘sgan bo‘lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlardagi narx o‘zgarish-lari hisobiga jami **4,67 f.d.** o‘sdi.

Har bir tovarning yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur’atiga ta’siri va ulushi tovarning narx o‘zgarishlari hamda uning iste’mol xarajatlari tuzilmasidagi salmoq vaznini hisobga olgan holda aniqlanadi.

TA’SIRI, F.D.




UMUMIY TA’SIR DARAJASIDAGI ULUSHI, % da



2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a’zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste’mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

**dekabr oyida o‘tgan oyga nisbatan***

### I Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 102,5 |
| 2021- y. | 102,1 |
| 2022- y. | 101,7 |
| 2023- y. | 101,4 |



### II Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,0 |
| 2021- y. | 100,8 |
| 2022- y. | 100,8 |
| 2023- y. | 100,9 |



### III Kiyim va poyabzal

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,0 |
| 2021- y. | 101,2 |
| 2022- y. | 101,0 |
| 2023- y. | 101,4 |



### IV Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,6 |
| 2021- y. | 100,4 |
| 2022- y. | 100,2 |
| 2023- y. | 101,1 |



### V Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,9 |
| 2021- y. | 100,8 |
| 2022- y. | 101,0 |
| 2023- y. | 101,4 |



### VI Sog‘liqni saqlash

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,2 |
| 2021- y. | 100,9 |
| 2022- y. | 101,5 |
| 2023- y. | 100,8 |



* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

dekabr oyida o‘tgan oyga nisbatan

*Davomi*

### VII Transport

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,3 |
| 2021- y. | 100,1 |
| 2022- y. | 102,2 |
| 2023- y. | 101,6 |



### VIII Axborot va aloqa

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,5 |
| 2021- y. | 100,2 |
| 2022- y. | 100,2 |
| 2023- y. | 100,6 |



### IX Dam olish, sport va madaniyat

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,8 |
| 2021- y. | 100,9 |
| 2022- y. | 100,5 |
| 2023- y. | 100,9 |



### X Ta’lim sohasidagi xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,3 |
| 2021- y. | 100,3 |
| 2022- y. | 100,4 |
| 2023- y. | 101,0 |



### XI Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,3 |
| 2021- y. | 101,7 |
| 2022- y. | 102,5 |
| 2023- y. | 100,0 |




### XII Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 100,2 |
| 2021- y. | 100,1 |
| 2022- y. | 100,1 |
| 2023- y. | 100,1 |




### XIII Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar

| | |
|---|---|
| 2020- y. | 101,2 |
| 2021- y. | 101,1 |
| 2022- y. | 99,7 |
| 2023- y. | 101,2 |



2023- yilning dekabrida bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INI diapazoni **100,0 %** dan (“Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” XI bo‘lim) **101,6 %** gacha (“Transport” VII bo‘lim) oraliqda joylashdi.

# O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

dekabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




I

### Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




II

### Kiyim va poyabzal




III

### Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari




IV

### Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




V

### Sog‘liqni saqlash




VI

### Transport




VII

### Axborot va aloqa




VIII

*Davomi*

**dekabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**

### Dam olish, sport va madaniyat




IX

### Ta’lim sohasidagi xizmatlar




X

### Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari




XI

### Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar




XII

### Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar




XIII

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.*

2023- yilning yanvar-dekabridagi INI bo‘limlar kesimida **99,8 %** dan (“Axborot va aloqa” VIII bo‘lim) **119,6 %** gacha (“Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” XI bo‘lim) oraliqda joylashdi.

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yoqilg‘I turlari” (IV bo‘lim) va “Transport” (VII bo‘lim) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yildagi INI 2022- yilning mos ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

**dekabr oyida o‘tgan oyga nisbatan**

**Donli ekinlar va yorma mahsulotlari**




**Go‘sht va go‘sht mahsulotlari**




**Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari**




**Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum**




**Yog‘lar va moylar**




**Mevalar va yong‘oqlar**




**Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar**




**Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar**




**Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari**




**Spirtsiz ichimliklar**




2023- yilning dekabrida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi guruhlari kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,3 %** dan **107,3 %** gacha chegarada joylashdi.

100,0 % lik darajadan past qisqa muddatli INI oy davomida “Yog‘lar va moylar” (**99,3 %**) guruhlarida qayd etildi.

2023- yilning dekabrida “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida qish mavsumi uchun odatiy bo‘lgan narx o‘sishi kuzatildi. Shunday qilib, 2023- yilning dekabrida “Mevalar va yong‘oqlar” guruhida qisqa muddatli INI **105,2 %** ga yetib, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhida ushbu ko‘rsatkich nisbatan yuqori bo‘ldi va **107,3 %** ni tashkil etdi.

Bo‘limning boshqa guruhlaridagi oylik INI sezilarli darajada past bo‘ldi va **101,0 %** dan oshmadi.

dekabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




### Go‘sht mahsulotlari




### Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




### Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




### Yog‘lar va moylar




### Mevalar va yong‘oqlar




### Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




### Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




### Tayyor oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar




### Spirtsiz ichimliklar




2023- yilning dekabrida “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**109,7 %** ga **131,3 %**), “Yog‘lar va moylar” (**90,3 %** ga **110,9 %**), “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**98,6 %** ga **112,9 %**) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**109,0 %** ga **124,6 %**) guruhlarida yillik nisbatdagi INI 2022- yilning dekabridagi mos ko‘rsatkichdan sezilarli darajada past bo‘ldi. Mevalar va yong‘oqlar esa, aksincha 2023- yilda bir yil avvalgiga qaraganda sezilarli qimmatlashdi.

2023- yil davomida I bo‘lim mahsulotlarining narx dinamikasi xususiyatlari ham tashqi (“import inflyatsiyasi”), ham ichki (mavsumiylik, bozor konyunkturasi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan narxlarning oshirilishi va b.) omillar bilan izohlanadi.

# ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

## Guruch va guruch oqshog‘i
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲138,7 %




## Bug‘doy uni
2023- yilning yanvar-dekabrida ▼98,9 %




## Mol go‘shti (suyakli)
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲109,3 %




## Qo‘y go‘shti
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲109,3 %




## Xom, yangi sog‘ilgan sut
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲113,3 %




## Tuxum
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲111,7 %




## Kungaboqar yog‘i
2023- yilning yanvar-dekabrida ▼82,2 %




## Shakar
2023- yilning yanvar-dekabrida ▲111,0 %




2023- yilda o‘tgan oyga nisbatan qisqa muddatli yig‘ma INI

# 2023- YILNING DEKABRIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % da







2023- yilning dekabrida sitrus mevalar, piyoz, sabzi kabi meva-sabzavot turlari narxlarida pasayish qayd etildi. Shu bilan bir qatorda, baqlajon, pomidor, bulg'or qalampiri, bodring, anor kabi meva va sabzavot turlari narxlarida o'sish kuzatildi.

Baqlajon, bulg'ori qalampiri va piyoz 2022- yilning yakuniga nisbatan narxlar pasayishi bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi. Anor, aksincha 2022- yilning dekabriga nisbatan sezilarli qimmatlashdi.

## 2023- yilda meva-sabzavot mahsulotlari qisqa muddatli INI dinamikasi, % da



# 2023- YIL DEKABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLI ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH (PASAYISH) SUR’ATIGA TA’SIRI, f.d.da






## SPIRTLI ICHIMLIKLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## TAMAKI MAHSULOTLARI

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabr oyida “Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,4 %** dan (pivo) **102,1 %** gacha (boshqa tamaki mahsulotlari) chegarada joylashdi.

2022- yilning dekbariga nisbatan spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari INI **108,4 %** dan (pivo) **112,5 %** gacha (sigaret) diapazonda joylashdi.

2023- yil davomida spirtli ichimliklar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari **100,1 %** dan **102,2 %** gacha oraliqda joylashdi. Tamaki mahsulotlari bo‘yicha ushbu oraliq **100,4%** - **102,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilda spirtli ichimliklar bo‘yicha INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati **0,8 %** ga, tamaki mahsulotlarida – **1,0 %** ga yetdi.

## KIYIMLAR

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## POYABZAL

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabrida "Kiyimlar va poyabzal" (III) bo'limda qisqa muddatli INI diapazoni **98,8 %** dan (ayollar futbolkalari) **103,1 %** gacha (erkaklar uchun teridan tikilgan kurtkalar) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan INI III bo'limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha **104,2 %** dan (qizlar uchun demisezon kurtkalar) **115,0 %** gacha (kimyoviy tozalash) oraliqda joylashdi.

Narxlarning tebranishi bir qator omillar orasida alohida turdagi kiyimlar va poyabzallarga mavsumiy talabning o'zgarishi hamda ayrim turdagi xizmatlar (masalan, kimyoviy tozalash xizmatlari va b.) iste'molining ortishi bilan izohlanadi.

o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI *







## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA’MIRLASH VA QO‘RIQLASH







## SUV TA’MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR







## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI







* kuzatuv 2021- yildan boshlangan.

## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabrida mahalliy hokimiyat organining qarori bilan poytaxtda hamda Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida sovuq suv yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari tariflari oshirildi. Mazkur hududlarning ushbu xizmat iste’moli bo‘yicha aholi jami xarajatlaridagi ulushini hisobga olgan holda, sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlarining INI oy davomida respublika bo‘yicha o‘rtacha **118,1 %** ni tashkil etdi.

Umuman olganda, 2023- yilda sovuq suv yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari bo‘yicha INI **165,0 %** ga yetib, yil davomidagi yig‘ma INI **0,23 f.d.** o‘sishini ta’minladi. Shu bilan birga, respublikaning beshta hududida (Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan hamda Qoraqalpog‘iston respublikasi)) ushbu xizmat turi bo‘yicha tariflar 2022- yilning yakunidagi darajada saqlanib qoldi.

Turar joy ijarasi uchun to‘lov, 2022- yildagi sezilarli o‘sishdan so‘ng 2023- yilda **7,4 %** ga oshdi.

o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI




## MAISHIY USKUNALAR




## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI




## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR




## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




“Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida 2023- yilning dekabridagi qisqa muddatli INI **97,7 %** dan (belkurak, ketmon, panshaxa, xaskash) **103,6 %** gacha (mixlar, shuruplar, boltlar, strubtsinalar) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan INI tebranishlari chegarasi **104,4 %** dan (stenkalar, servantlar, gorkalar) - **115,7 %** gacha (gilamlar va gilam mahsulotlarini yuvish va tozalash xizmatlari)ni tashkil etdi.

o'tgan oyga nisbatan | O'tgan yilning dekabriga nisbatan

## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR




## STATSIONARDA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR




## SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




"Sog'liqni saqlash" (VI) bo'limiga kiruvchi tovarlar bo'yicha 2023- yilning dekabr oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **94,7 %** dan (tibbiy niqoblar va qo'lqoplar) **103,4 %** gacha (stomatologik xizmatlar) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan INI **97,1 %** dan (tibbiy niqoblar va qo'lqoplar) **113,5 %** gacha (stomatologik xizmatlar) diapazon oralig'ida joylashdi.

2023- yil davomida VI bo'lim bo'yicha qisqa muddatli INI **100,3 %** dan (avgust) **101,3 %** gacha (mart) tebrandi, o'rtacha oylik o'sish sur'ati esa yil davomida **0,8 %** ni tashkil etdi.

o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan

## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




## YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI




## TOVARLARNI TASHISH BO'YICHA XIZMATLAR




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da

### Yoqilg'i turlari bo'yicha




### Yo'lovchi transporti




Benzin 2023- yilning dekabrida barcha hududlarda qimmatlashdi. Uning qisqa muddatli INI diapazoni **101,3-107,1 %** ni tashkil etdi. Propan narxi 2023- yilning dekabrida ham, umuman yil davomida ham benzinga nisbatan yuqoriroq oshdi.

2023- yil davomida VII bo'lim bo'yicha qisqa muddatli INI **99,6 %** dan (aprel) **103,5 %** gacha (oktabr) oraliqda joylashdi. Ushbu holat ma'lum darajada yoqilg'i-moylash mahsulotlari narxlaridagi tebranishlar bilan izohlanadi.

## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabridan statsionar aloqadan foydalanganlik uchun abonent to‘lovi **15,0 %** oshirildi. 2023- yilning dekabrida mobil telefon uskunalari narxlarida pasayish qayd etildi.

VIII bo‘lim tovarlari va xizmatlari bo‘yicha 2022- yilning dekabriga nisbatan INI **96,1 %** dan (mobil aloqa xizmatlari) **115,0 %** gacha (turg‘un aloqa xizmati) oraliqda joylashdi.

o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




### MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




### KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




### BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI




### GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI




### DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabrida IX bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari chegarasi **98,2 %** (flomasterlar to‘plami) – **104,1 %** (turistik sayohat)ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan INI diapazoni **95,6 %** (A4 formatidagi qog‘oz) – **152,4 %** (hayvonot bog‘lari xizmatlari)ni tashkil etdi.

2023- yil davomida IX bo‘lim bo‘yicha qisqa muddatli INI **100,3 %** dan (iyul) **101,1 %** gacha (yanvar, aprel, noyabr) oraliqda tebrandi.

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## OLIY TA'LIM

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabrida X bo'limda narx o'zgarishlari faqatgina repetitorlar xizmatlari va chet tili va shunga o'xshash o'quv kurslarida o'qitish xizmatlarida kuzatildi.

Umuman, 2023- yilda bosqichlarga bo'linmagan ta'lim xizmatlari narxlari boshqa ta'lim sohalaridagiga qaraganda tezroq o'sdi. Shu bilan birga, davlat MTT xizmatlari narxi 2023- yilda o'nta hududda pasayib, ushbu xizmat turi bo'yicha yillik INI 100 % lik darajadan pasayishini ta'minladi.

*) maktabgacha ta'lim tashkilotlari

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## MEHMONXONALAR XIZMATLARI

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




XI bo‘limda narxlar darajasi 2023- yilning so‘nggi oyida barqaror bo‘ldi.

2023- yilda ushbu bo‘limga kiruvchi xizmatlar bo‘yicha narx o‘sishi **10,3 %** dan (mehmonxonalar xizmatlari) **26,3 %** gachani (dam olish markazlari xizmatlari) tashkil etdi.

XI bo‘lim bo‘yicha qisqa muddatli INI dinamikasi notekis bo‘ldi. Bo‘lim bo‘yicha eng yuqori qisqa muddatli INI iyun oyida (**103,2 %**), eng past ko‘rsatkich esa dekabrda (**100,0 %**) qayd etildi. 2023- yilda INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati **1,5 %** ga yetdi.

## SUG'URTA

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## MOLIYAVIY XIZMATLAR

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo'yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




Moliyaviy xizmatlar orasida 2023- yilning dekabr oyida bank muassasalari xizmatlari hamda banklar orqali pul o'tkazmalari xizmatlari narxlarida o'zgarish kuzatildi.

Umuman olganda, 2023- yilda XII bo'limda kuzatiladigan xizmatlar narxlarining o'sishi **100,5 %** dan (mikromoliyaviy tashkilotlar va lombardlar xizmatlari) **109,8 %** gacha (pul o'tkazmalari uchun to'lov) oraliqda bo'ldi.

Bo'limdagi narx o'zgarishlari xususiyati 2023- yilda ayrim banklarda milliy valyutadagi xizmatlar qiymatining oshishi hamda xorijiy valyutada belgilangan xizmatlar uchun to'lov qiymatiga AQSH dollari kursi o'zgarishining ta'siri bilan bog'liq bo'ldi.

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## BOSHQA XIZMATLAR

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




## Asosiy turlar bo‘yicha 2023- yilning dekabridagi INI, % da




2023- yilning dekabrida XIII bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI ko‘rsatkichi **99,7 %** dan (tish schyotkalar) **105,0 %** gacha (hammomlar xizmatlari) chegarada bo‘ldi.

2022- yilning dekabriga nisbatan uzoq muddatli INI bo‘limda **105,6 %** dan (bolalar aravachalari) **119,6 %** gacha (hammomlar xizmatlari) oraliqda bo‘ldi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i –** narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.




Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar narx o‘zgarishlarining 2023- yil dekabridagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur’atiga ta’siri yuqori bo‘ldi. Ularning hissasiga umumiy ta’sir darajasining **44 %** dan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

“Kiyimlar va poyabzallar”, “Transport” va “Turar joy xizmatlari, elektr, gaz va boshqa yoqilg‘I turlari” bo‘limlaridagi narx o‘zgarishlarining ham 2023- yilning dekabridagi yig‘ma INI o‘sish sura’tiga salmoqli (jami hisobda **0,42 f.d.** yoki umumiy ta’sir darajasining **33,9 %** i ) ta’sir ko‘rsatdi.

## O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA NARX O‘ZGARISHLARINING 2023- YIL UCHUN YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

**2023- yilning dekabridagi yillik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.** **+8,77**




2023- yil uchun yig‘ma INI o‘sish sur’atining **42,2 %** i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari bilan ta’minlandi. Ularning ta’siri **3,70 f.d.** ni tashkil etdi.

Transport sohasida narxlarning o‘sishi hissasiga umumiy ta’sir darajasining **14,3 %** i, kiyimlar va poyabzallar bo‘yicha **8,2 %**, turar joy xizmatlari, elektr, gaz va boshqa yoqilg‘i turlari bo‘yicha **7,5 %** va sog‘liqni saqlash sohalaridagi narx o‘zgarishlari hissasiga **7,3 %** to‘g‘ri keldi.

“Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi va buning ta’sirida yig‘ma INI **0,01 f.d.** pasaydi.

# 2023- yildagi yig‘ma INI o‘sish va pasayish sur’atiga yuqoriroq ta’sir ko‘rsatgan mahsulotlar

## O‘sish sur’atiga yuqoriroq ta’sir ko‘rsatgan mahsulotlar Top o‘ntaligi, f.d.




## Pasayish sur’atiga yuqoriroq ta’sir ko‘rsatgan mahsulotlar Top o‘ntaligi, f.d.

